FARG’ONA VILOYATI SO’X TUMANI HOKIMINING
QARORI

2024 - yil 13 - mart 28-11-159-Q/24 So‘x tumani hokimligi

Tuman hududidagi yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli avtomototransport vositalari va ularga tirkamalarni majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish to‘g‘risida

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993 y., 9-son, 320-modda) 6, 25-moddalari, “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonunining (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2013 yil, 15-son, 197-modda) 17-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2003 yil 31-yanvardagi 54-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2003 yil, 1-2-son, 17-modda) muvofiq transport vositalarining 2023 yilda majburiy texnik ko‘rigini tashkil qilish maqsadida,

Q A R O R Q I L A M A N:

1.Tuman hududidagi mulkchilik shaklidan qat’iy nazar yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli avtomototransport vositalari va ularga tirkamalar tegishli tartibda majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazilsin.

2.Tumanda transport vositalarini texnik ko‘rikdan o‘tkazish quyidagi davriylikka muvofiq belgilansin:

a).tijorat asosida yo‘lovchilar tashish uchun foydalaniladigan yengil avtomobillar, avtobuslar va o‘tiriladigan joylar soni 8 ta va undan ortiq bo‘lgan (haydovchining o‘rnidan tashqari), odamlarni muntazam tashish uchun jihozlangan yuk avtomobillari, yirik gabaritli, og‘ir vaznli va xavfli yuklarni tashish uchun maxsus transport vositalari va ularga tirkamalar - bir yilda ikki marta;

b).ishlab chiqarilganligiga besh yildan ko‘p bo‘lmagan (ishlab chiqarilgan yili ham shu jumlaga kiradi) transport vositalari (mazkur bandning “a” kichik bandida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari) - ikki yilda bir marta;

v).ishlab chiqarilgan yilini hisobga olgan holda ishlab chiqarilganligiga besh yildan ortiq bo‘lgan transport vositalari, shuningdek ishlab chiqarilgan vaqti aniqlanmagan transport vositalari (mazkur bandning “a” kichik bandida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari) - bir yilda bir marta;

g).tirkamalar ko‘rikka transport vositasi - shatakchi uchun belgilangan muddatlarda;

d).navbatdagi texnik ko‘rikdan o‘tkazishning ilgari o‘rnatilgan muddatlaridan qat’i nazar, ularni DYHXX organlarida ro‘yxatdan o‘tkazish (qayta ro‘yxatdan o‘tkazish) vaqtida;

e).ular ishlab chiqarilgan yildan qat’i nazar, DYHXX organlarida ro‘yxatdan o‘tkazilgan (qayta ro‘yxatdan o‘tkazilgan) kundan boshlab bir yil o‘tgach (mazkur bandning “a” kichik bandida ko‘rsatilgan holatlar bundan mustasno).

3.Mazkur qarorning 2-bandi “a” kichik bandida ko‘rsatilgan transport vositalarining texnik ko‘rigi:

birinchi marta - joriy yilning 1 martidan 30 iyungacha;

ikkinchi marta - joriy yilning 1 sentabridan 31 oktabrgacha o‘tkazilsin.

Yuridik shaxslarga qarashli bo‘lgan transport vositalarining texnik ko‘rigi joriy yilning 1 martidan 30 iyungacha o‘tkazilsin.

Jismoniy shaxslarga qarashli bo‘lgan transport vositalarining texnik ko‘rigi joriy yilning 1 yanvaridan 31 avgustgacha o‘tkazilsin.

4.Tumanda texnik ko‘rikni o‘tkazish uchun tuzilgan komissiya tarkibi 1-ilovaga muvofiq, jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli bo‘lgan transport vositalarining 2024 yilgi majburiy texnik ko‘rigini o‘tkazish jadvali 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 31 yanvardagi “Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 54-sonli qarori 3-bandi talablaridan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi, Mudofaa vazirligi, Ichki

ishlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmatining harbiy bo‘linmalari transport vositalari ko‘rsatib o‘tilgan idoralar tomonidan belgilangan tartibda majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkaziliishi nazarda tutilsin.

6.Majburiy texnik ko‘rik davomida komissiya tarkibida ish olib boruvchi xodimlarning doimiy ish joylaridagi oylik ish haqlari saqlanib qolinsin.

7.Mazkur qaror Sadoi So‘x gazetasida rasman e’lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

8.Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari S.Murzoyev zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **S.Sayidmusaev**

So‘x tuman hokimining
2024-yil 13-martdagi
28-11-159-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Tumanda transport vositalari texnik ko‘rigini o‘tkazishni tashkil etuvchi komissiya

T A R K I B I

Komissiya raisi:		
Sh.Turayev	-	So‘x tuman ichki ishlar bo‘limi yo‘l harakati xavfsizligi bo‘linmasi boshlig‘i,
Komissiya raisi o‘rinbosari:		
S.Murzoyev	-	So‘x tuman hokiminipng o‘rinbosari
Komissiya kotibi:		
G.Mulloboboyev	-	Tuman ichki ishlar bo‘limi YHXB katta inspektori
Komissiya a’zolari:		
H.Mirzoyev	-	Tuman YFUK boshlig‘i
U.Mamajonov	-	So‘x tuman Qishloq xo‘jaligi bo‘limi Davlat texnik nazorati bo‘limi boshlig‘i
Sh.Oripov	-	So‘x tuman Gidroqurulish MChJ

So‘x tuman hokimining
2024-yil 13-martdagi
28-11-159-Q/24-son qaroriga
2-ilova

Yuridik shaxslarga karashli bo‘lgan transport vositalarinining texnik qo‘rigidan o‘tishning 1-bosqich

J A D V A L I

T/r	**Xo‘jalik va tashkilot nomi**	**Bo‘ysunuvchi vazirligi**	**O‘tish kuni**	**O‘tkaziladigan joy**
1	Tuman markaziy shifoxona va sanitariya epidimologiya birlashmasi	Sog‘liqni saklash vazirligi	02.04.2024	shifoxona avtosaroyi
2	Kooperativ SOX	Maxalliy sanoat konserni	03.04.2024	Shirkat avtosaroyi
3	«So‘x» shirkat xo‘jaligi va tuman xokimligi	Qishloq va suv xo‘jalik vaz.	12.04.2024	Shirkat avtosaroyi
4	MTP	Qishloq va suv xo‘jalik vaz.	22.04.2024	Shirkat avtosaroyi
5	151-avtokorxona MChJ	Avtotransport vazirligi	23.04. 2024	Avtokorxona avtosaroyi
6	Xushyor shirkati	Kishlok va suv xo‘jalik vaz.	27.04.2024	Shirkat avtosaroyi
7	«Suxgidrokurilish» (sobik 5 A\K)	Suv qurilish vazirligi	05.05.2024	Korxona avtosaroyi
8	Ozod shirkati	Qishlok va suv xo‘jalik vaz.	07.05.2024	Jamoa avtosaroyi
9	Vatanparvar tashkiloti	Vatanparvar jamiyati	12.05.2024	Korxona avtosaroyi
10	Sux AYB	Yo‘l qurilish vazirligi	18.05.2024	AYB avtosaroyi
11	Biznes maktabi	Oliy va o‘rta vazirligi	21.05.2024	Maktab avtosaroyi
12	So‘x gazta’minot	Uz.R gazta’minot	26.05.2024	Korxona avtosaroyi
13	Sitorai tobon MChJ	Boshqa vazirliklar	29.05.2024	«So‘xgidrokurilish» saroyi
14	Sux gidro-trans MChJ	Boshqa vazirliklar	01.06.2024	«So‘xgidrokurilish» saroyi
15	AYoKShlar	Uzbek neft xolding	02.06.2024	151-avtokorxona saroyi
16	So‘x yo‘lovchi trans	Avtotransport vazirligi	04.06.2024	151-avtokorxona saroyi
17	So‘x Chashma	Boshqa vazirliklar	08.06.2024	Korxona avtosaroyi
18	Kommunal xo‘jalik birlashmasi	Boshqa vazirliklar	09.06.2024	Korxona avtosaroyi
19	«Obodonlashtirish» DUK	Boshqa vazirliklar	09.06.2024	Korxona avtosaroyi

Eslatma. Jadvalda kursatilgan avtosaroylarda boshka korxona-tashkilotlar avtomototransport vositalari shartnoma asosida saklansa ushbu jadvalda kursatilgan kuni shu tashkilot bilan birga utkaziladi.